

# **Uzbekistan Airways Samarqand aeroportidan birinchi xalqaro parvozni amalga oshirdi**

**2022 1 April**

2022-yil 1-aprel kuni Uzbekistan Airways Samarqand – Istanbul yoʻnalishi boʻyicha Samarqand xalqaro aeroportidan birinchi xalqaro parvozni amalga oshirdi.

Shu kuni Samarqandda sayyohlik agentliklari, mehmonxonalar, shuningdek, diplomatik korpus, vazirliklar, idoralar va ommaviy axborot vositalari vakillarini bir joyga toʻplagan “Discovering Uzbekistan” birinchi sayyohlik anjumani boʻlib oʻtdi.

Eslatib oʻtamiz, 2021-yil 28-martdan Uzbekistan Airways Samarqand shahrida ikkinchi xab tashkil etib, Toshkent, Moskva, Istanbul, Olmaota va Sankt-Peterburgga amalga oshirishni boshlagan edi